

Xodimlarni baholash

Har yili kompaniyada xodimlarni baholash amalga oshiriladi, ya'ni ular attestatsiyadan o'tkaziladi.

Maqsadlar:

Mutaxassislar bilimlarini baholash va ularning professional rivojlanishi

Tarkibiy bo'linmalar kadrlar tarkibini yaxshilash bilan bog'liq muammolarni aniqlash va ularni hal qilish yo'llari

Attestatsiya komissiyasi - tarkibiy bo'linmalar rahbarlari va korxonaning yuqori malakali mutaxassislari, shuningdek boshqa tashkilotlardan jalb qilingan ekspertlar.



Xodimlarni o'qitish va rivojlantirish

Eriell Prof Education ko'magida xodimlarni o'qitish va rivojlantirish maqsadida muntazam ravishda kurslar tashkil etilmoqda. Bugungi kunda Kompaniya xodimlarining yarmidan ko'pi quyidagi kurs va treninglarda o'qitildi:

- Loyihalarni boshqarish
- Muhandislik ma'lumotlarini boshqarish tizimida ishlashga o'qitish
- Yetakchilik va jamoa tuzish
- Muzokaralar olib borish, loyihalardagi kommunikasiyalar va xodimlarning stressga chidamlilik darajasini oshirish
- Ishbilarmonlik (so'zlashuv) ingliz tili kurslari
- Emosional intellekt



Xodimlarni moslashtirish

Yangi xodimlarni moslashtirish uchun UzLEda Welcome training o'tkazilib, unda xodimlar kompaniyaning korporativ madaniyati, tashkiliy tuzilma, ichki mehnat tartibi qoidalari, an'analar, yosh mutaxassislar muvaqqiyati tarixi bilan tanishtiriladi.

Trening axborotni tez va samarali qabul qilish, xodimlar tezroq moslashishi va bir-biri bilan tanishishlari uchun interaktiv shaklda o'tkaziladi.



Ustozlik dasturi

O'zbekiston Respublikasi sanoat tarmoqlari uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash maqsadida «UzLITI Engineering» va 5 ta tarmoq OO'Yulari bilan Hamkorlik to'g'risida kelishuv imzolangan:

- I.M. Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft' va gaz universiteti filiali
- Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti
- Toshkent davlat texnika universiteti
- Toshkent kimyo-texnologiya instituti
- Toshkent arxitektura-qurilish instituti

Har yili kompaniyada OO'Yularning 50 nafardan ziyod bitiruvchilari stajirovka o'taydi, ularning har biri yaxshiroq moslashishi hamda bilimlar va xalqaro tajribani o'zlashtirishi uchun Ustozga birlashtirilgan. Eng yaxshi stajerlar UzLITI Engineering jamoasi safiga qo'shilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Kompaniya loyihalashning xalqaro me'yorlari va standartlarini biluvchi munosib avlodni tayyorlashdan manfaatdor.

